

---

## Imkoniyati cheklangan fuqaroga nogironlik aravachasi berildi

□ Bugungi kunda nogironligi bo'lgan fuqarolarga amaliy ko'mak berish ularni yashash sharoitlarini yaxshilash va salomatligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

□ Eng aziz, eng ulug' bayram arafasida tumanimizda ezgu, xayrli ishlar davom etmoqda. Bugun Voxim MFY Xavaskor ko'chasi 522 xonadonda yashovchi fuqaro Komilova Busoliyaga nogironlik aravachasi topshirildi.

□ Ushbu jarayonda mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Xudoyorxon Xojixonov, "Nuroniylar" kengashi tuman bo'limi raisi Tursunxo'ja Abdurahmanov, mahalla fuqarolar yig'ini raisi Toxirjon Qosimovlar ishtirok etishdi.

□ Ushbu fuqaroga berilgan aravacha uning og'irini yengil qilishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ko'chagi chiqishlari, odamlar bilan aloqada bo'lishlari uchun ham zamin yaratadi. Bu esa uning ijtimoiy faolliklarini oshiradi.

2022-08-24 06:19:54